



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRINING BUYRUG'I

Toshkent sh.

Nº 56

"18" 02 2022 y.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ayrim ichki hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi markaziy apparati hamda vazirlik tizimidagi tashkilot, korxona va muassasalarda halollik siyosatini ta'minlash, xodimlar va umuman jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini oshirish maqsadida yuksak xulq-atvor standartlariga muvofiqlik, shuningdek, lavozim (xizmat) majburiyatlarini bajarish chog'ida vazirlik va uning tizimidagi tashkilot, korxona, muassasalar xodimlari tomonidan korrupsiyaviy harakatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlash hamda madaniyat va san'at sohasini korrupsiyadan xoli sohaga aylantirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati **1-ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi markaziy apparati hamda vazirlik tizimidagi tashkilot, korxona va muassasalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti **2-ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi markaziy apparati hamda vazirlik tizimidagi tashkilot, korxona va muassasalarda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom **3-ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi markaziy apparati hamda vazirlik tizimidagi tashkilot, korxona va muassasalarga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti **4-ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi markaziy apparati hamda vazirlik tizimidagi tashkilot, korxona va muassasalar xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnomasi **5-ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi markaziy apparati hamda vazirlik tizimidagi tashkilot, korxona va muassasalarda kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnomasi **6-ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi markaziy apparati hamda vazirlik tizimidagi tashkilot, korxona va muassasalarga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnomasi **7-ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi markaziy apparati hamda vazirlik tizimidagi tashkilot, korxona va muassasalarda Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti **8- ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi markaziy apparati hamda vazirlik tizimidagi tashkilot, korxona va muassasalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom **9- ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi markaziy apparati hamda vazirlik tizimidagi tashkilot, korxona va muassasalar xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament **10- ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vaziri, viloyatlar madaniyat boshqarmalari va Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarsi, vazirlik tizimidagi tashkilot, korxona va muassasalar rahbarlari bir hafta muddatda ushbu buyruqning mohiyati va ahamiyatini xodimlar o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

3. Axborot va matbuot xizmati (Fayziyev) O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining korrupsiyaga qarshi siyosati doirasida amalga oshirilayotgan ishlarning ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borilishini ta'minlasin.

4. Ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (Raximov):

vazirlik markaziy apparati xodimlarini bir hafta muddatda mazkur buyruq mohiyati va ahamiyati to'g'risida xabardor qilsin;

mazkur buyruq talablari bajarilishini va doimiy nazoratini ta'minlasin.

5. Tashkiliy nazorat va tahlil boshqarmasi (Akramov) mazkur buyruqning vazirlik tarkibiy bo'linmalari va tizim tashkilotlariga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir

O.Nazarbekov